

# OTALAR MAJLISI O'TKAZILDI



## OTALAR MAJLISI O'TKAZILDI

Kecha, Termiz shahridagi 1,2-sonli umumiy o'rta ta'lim maktablarida otalarning farzandlar tarbiyasidagi o'rni, majburiyati, mas'uliyati va farzandlar bilan o'zaro munosabatlarini mustahkamlash yuzasidan "Otalar majlisi" o'tkazildi.

Ushbu yig'ilishda "Nuroniyilar" jamg'armasi shahar bo'limi raisi T.Berdiev, deputatlar, faol nuroniyilar, otalar va o'qituvchilar ishtirok etishdi.

Yig'ilishda ma'ruzachilar va o'qituvchilar tomonidan farzand ta'lim-tarbiyasidagi o'rinda, ayniqsa, otalar ko'proq mas'uliyatli bo'lishi to'g'risida o'zaro fikrlar almashildi.

O'z navbatida, kelgusida o'tkaziladigan "Otalar majlisi" an'anaga aylantirilishi hamda farzandlar ta'lim-tarbiyasiga bog'liq muammolarni otalar bilan birgalikda muhokama qilishga kelishib olindi.



